

BIZ YOSHLAR OROLNI ASRAYMIZ**Choriyev Sardor Raxmatulla o'g'li***Termiz davlat universiteti Yuridika fakulteti**Yurisprudensiya yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Orol dengizining kelib chiqishi, uning tarixi haqida ham keltirib o'tilgan. Ushbu maqolada Orol dengizining 60-70 yil avvalgi holati va hozirgi holati haqida ham ma'lumotlar berilgan. Maqolada Orol dengizining ekologik ahvoli va Orol dengizi bo'yi hududining ekologik muommolari ham keltirilib o'tilgan. Shuningdek Orol dengizi suvining kamayib ketishi davlatimiz va xalqimizga qanchalik darajada muommolarga olib kelganligi haqida aytib o'tigan.*

Kalit so'zlar: *Orol, dengiz, suv, ekologiya, muommo, kema, aholi, tarix, baliqchilik, tabiiat.*

Qachonlardir Orol dengizi haqiqatan ham ulkan va sersuv bo'lgan. Bundan atigi 60-70 yilcha avval, XX asrning 50-yillarida Qozog'iston va O'zbekiston hududlarida joylashgan mazkur suv havzasining hajmi 68 ming kvadrat kilometrni tashkil etgani yuqoridagi fikrimizning tasdig'idir. Ulkan suv havzasining bo'yi 428 kilometr, eni esa 283 kilometr, eng chuqur joyi 68 metr bo'lgan. Taassufki, XXI asrning boshlariga kelib esa vaziyat tamomila o'zgardi. Orolning maydoni yildan-yilga tobora qisqara borib, 14 ming kvadrat kilometrga tushib qoldi. Uning eng chuqur joylari 30 metrni tashkil etdi. Bora-bora u bir-biridan ajralgan ikkita alohida ko'lga aylandi. Shimoliysi kichik Orol, janubiyysi katta Orol deb atala boshlandi.[1]

Bu mavzuda qalam tebratishimizning boisi shuki, mamlakatimizda dengizshunoslik, daryoshunoslik ilmi shakllanmagan. O'tmishda ham, hozir ham bu ishlarni o'zga millat vakillari amalga oshirishadi. Albatta, ular o'z maqsadlari yo'lida shunday qilishadi. Ushbu maqolani tayyorlashda ham biz ular keltirgan faktlarga suyandik. Nima bo'lganda ham Orol xalqimiz tarixida muhim o'rin tutadi. Har holda u haqda nimalarnidir bilganimiz o'zimizniki. Aslida, bilishimiz ham shart. Faqat bugina emas, ko'p ma'lumotlarning ko'prog'ini.

Olis moziyga nazar solsak, ma'lumotlarda keltirilishicha, bundan yigirma million yillar muqaddam Orol bilan Kaspiy bir-biriga qo'shilib turgan. Ayni paytda dengizning qurigan havzasidan topilgan qadimgi mozorlar 1 ming yillikning o'rtalariga to'g'ri keladi. Ko'rinadiki, o'sha paytda ham Orol ancha qisqarib, sayozlashgan, keyinchalik esa yana suvga to'lgan. Mutaxassislarining tasdiqlashicha, Orolida suv sathining o'zgarishi ma'lum bir tsikllarga bog'liq holda kechgan. XVII asr boshlarida ham navbatdagi sayozlanish davri boshlangan. Ayrim daryolar unga quyilmay qo'ygan. [2]

Ammo o'sha vaqtda bu hodisa mutlaqo halokatni anglatmagan. Dengiz, aniqrog'i dunyo okeanidan uzilib qolgan sho'r suvli ko'l baribir mintaqadagi yirik suv havzasi sifatida

qolavergan. Orolning moviy to'liqlarida yirik kemalar va paroxodlar suzib yurgan. Orolning hatto o'z harbiy flotiliyasi bo'lgan. Flot kemalari to'plardan o'q uzib o'zlarining Rossiya imperatori fuqarolari ekanini eslatib turgan. Shu bilan birga ulkan suv havzasini o'rganish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari ham olib borilgan.

Sobiq ittifoqning eng ko'p suv talab qiladigan paxtaga bo'lgan ehtiyoji tufayli O'rta Osiyoda kanallarning ketma-ket qazila boshlashi, katta va kichik daryolarga suv omborlari va to'g'onlar qurilishi yuz berajak fojining xavotirli xabarchisi bo'ldi. Mirzacho'l, Qarshi cho'li va boshqa cho'l hududlarini o'zlashtirish, kanal va ariqlarni qazish ishlari XX asrning 30-yillarida boshlanganiga qaramay, yana o'ttiz yillar mobaynida Orol suv sathi pasaymay turdi. Faqat 60-yillarning boshiga kelib pasayish dastlab asta-sekin, keyinchalik tezlashib boshladi. Binobarin, 1961 yilda ko'lining sathi 20 santimetrga, ikki yildan keyin esa 80 santimetrga pasayib ketdi. [2]

1990 yilga kelib esa Orolning maydoni 36,8 ming kavadrat kilometr tushib qoldi. Aynan shu holatda suvning sho'rlanishi uch baravarga oshdi. Bu tabiiy ravishda mahalliy hayvonot va nabotot dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Holbuki, barcha zamonlarda ushbu dengizda baliq mo'l-ko'l bo'lgan va aholi tomonidan ovlab kelingan. Orol baliqchilari yiliga ming tonnalab turli-tuman baliqlarni ovlashganiga guvoh bo'lgan kishilar hali hayot. Dengiz sohillarida baliq zavodlari, konserva kombinatlari va baliq qabul qiluvchi punktlar kechayu kunduz faoliyat yuritgan.

1989 yilga kelib Orol dengizi ikkita mustaqil ko'lga ajraldi. Shundan keyin unda baliqchilik sohasi butunlay to'xtadi. Katta Orol shu kunlarda baliqdan nom-nishon qolmagan. Suvda tuz miqdori haddan ziyodligidan baliqlar butunlay qirilib bitgan. Oz miqdordagina baliq kichik Oroidan tutilyapti. Ammo bu dengizdan bir tomchi, xolos.

Orol tom ma'nodagi dengiz maqomidan ajralgandan keyin eng jiddiy mushkulot va qiyinchilik uning qirg'oqlaridan yashovchi aholi yelkasiga tushdi. Baliqchilik sanoati inqirozga yuz tutgach, yuzlab kishilar ishsiz, tirikchiliksiz qolishdi. Bu mahalliy aholining fojiasiga aylandi. Masalaning yana bir og'riqli jihati, sho'r ko'lda yashashga moslashgan baliqlar pestitsidlarga me'yoridan yuqori darajada "to'yingan". Bu esa uni iste'mol qiluvchi aholi sog'ligiga salbiy ta'sir etishi turgan gap.

Xo'sh, nima sababdan bunday fojia yuz berdi, Orol dengizi qurishining sabablari nimada? Ko'pchilik mutaxassislar buning sababini Orol dengizini ta'minlab turgan suv zaxiralarini noto'g'ri taqsimlashda deb aytishadi. Azal-azaldan dengizning asosiy suv manbalari mintaqaning katta daryolari — Amudaryo va Sirdaryo bo'lgan. Bir zamonlar ular dengizga yiliga 60 kub kilometr suvni yetkazib bergan. Hozirgi paytda bu ko'rsatkich yiliga atigi 5 kub kilometrni tashkil etadi. O'rta Osiyoning bu qudratli daryolari o'z oqimini dunyoning eng purviqor tog'lari Hindikush, Pomir, Tyan-Shandan boshlaydi. Ular Tojikiston



Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekiston davlatlari hududi bo'ylab ikki ming kilometrdan ziyod yo'lni bosib o'tib Orolga quyilgan. [3]

Orolning qurib qolishi bilan bog'liq sanab o'tilgan sabablar bilan bir qatorda ko'l tubi yer qatlamlarining buzilishi ham shu oqibatga olib kelgan degan qarashlar mavjud. Buning natijasida suv yer ostidan Kaspiy dengizi va boshqa ko'llarga oqib ketayotgan emish. Ayrim mutaxassislar esa bunga bosh sabab sayyoramizdagi iqlim o'zgarishlari deb biladi. Dengizning qurishiga tog'lardagi muzlarning erib ketayotgani sabab deguvchilar ham yo'q emas. Zero, aynan Sirdaryo va Amudaryo mana shu tog'liklardan boshlanadi.[4]

XXI asrda Orolbo'yida iqlim o'zgarishlari jarayonlari tezlashdi. Umuman, iqlim muvozanati ko'p jihatdan katta suvga bog'liq edi. Orol dengizi tabiatni mo'tadillashtirib, ob-havo muvozanatini saqlab turardi. Ta'bir joiz bo'lsa, Orol Sibirning sovuq shamollarini yumshatar, jazirama saraton havosini esa salqinlatib bormoqda. Shunga mos ravishda ziroatlarni sovuq urmoqda, uy hayvonlari ham bundan jabr chekmoqda.

Agar bu muammolar barchasi faqat Orolbo'yi bilan cheklansa, masala unchalik chigallashmasdi. Taassufki, qurib borayotgan Orol ayni kunda juda katta hududga ta'sir o'tkazmoqda. Gap shundaki, Orol dengizi ustidan qudratli shamol oqimlari tez o'tayapti. Bu oqimlar endilikda dengizning ochilib qolgan tubida yotgan ming-ming tonna tuz, ximikatlar va zaharli changlardan iborat xavfli aralashmani osmonga ko'tarib chiqadi. Zaharli changlar atmosferaning yuqori qatlamlariga yetib borib, nafaqat butun Osiyo qit'asi hududiga, balki Yevropaga ham yetib boradi. Shubhasiz, yomg'ir va qor aralash yoqqan tuz yomg'irlari zaminga tushgach, barcha tiriklikni nobud qiladi.

Orol dengizining hozirgi ekologik ahvoriga qaraydigan bo'lsak, Orol dengizi ilgari vaqtda dunyodagi eng katta ichki dengizlardan biri hisoblanib, unda baliqchilik, ovchilik, transport va erkratsion maqsadlarda foydalanilar edi. Dengiz suv rejimini unga quyiladigan Amudaryo, Sirdaryo, er osti suvlari hamda otmosfera yonilg'ilari tushishi va yuzadan suvning bug'lanishi tashkil etadi. qadimgi tarixiy davrlarda dengiz sathining 1,5 — 2,10 o'zgarishi tabiiy iqlim hususiyati bilan bo'liq bo'lib, suvning hajmi 100—150 kub km, suv sathi maydoni — 4000 kv, km ni tashkil etgan. Sug'oriladigan dehqonchilikning rivojlanishi natijasida su'orilishga foydalaniladigan qaytmas suvlar va qurqchilik yillari Amudaryo va Sirdaryoning deltasiga quyiladigan suv miqdori kamaydi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda dengizning sathi 1961-yilga nisbatan 16,8 m ga pasaydi. 1994-yil 36,6 m. Bunda dengizning

hajmi 3-marta, yuzasi 2-marta, shurlanish darajasi 9-10 gG'l dan 34-37 gG'l ga ortadi; 2000-yilga borib 180—200 gG'l ko'tariladi. Schozirgi kunda dengiz sathining pasayishi yiliga 80 — 110 sm tashkil etmoqda. [4]

Orol dengizi asosan Amudaryo va Sirdaryodan suv oladi. So'ngi yillarda Sirdaryo suvi suv omborlarini to'ldirishga va sug'orishga foydalanilishi tufayli Orol dengiziga etib bormaydigan bo'ldi. Amudaryo va uning irmoqlarida suv omborlari qurilib, ko'p miqdordagi suv kanallar orqali ekin dalalariga oqiza boshlandi. Buning oqibatida Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo Amudaryoga etib bormaydigan bo'lib qoldi. Hozirgi davrda Amudaryodan suv oladigan kanallarning umumiy uzunligi 170 ming km dan, suv omborlari soni 50 tadan oshib ketdi. Ularning suv sig'imi 16-17 mld kubokilometrni tashkil etadi.

Ekologik tanglik Orol bo'yi tabiati, o'simliklar va hayvonot dunyosiga ham katta ziyon etkazdi. Suv zahiralarning kamayishi va sho'rlanishi natijasida yaylovlarda chorva uchun oziq bo'ladigan o'simliklar turi va sifati kamayib, o'tloqlar maydoni deyarlik uch martaga qisqardi. Amudaryo va Sirdaryo suvining kamayishi, suv toshqinlarining bo'lmasligi, daryolarning suv bosadigan qirg'oqlarida yastanib yotadigan to'qaylardagi xilma-xil o'simliklarning qurib, yo'q bo'lib ketishiga olib keldi. Ularning o'rnini qurg'oqchilikka chidamli yulg'un, shuvoq kabi cho'l o'simliklari egallamoqda. To'qaylarning yo'qolishi ko'plab o'simlik va hayvon turlarining qirilib ketishiga sabab bo'ldi.

O'tgan 20 asrning ikkinchi yarmida Amudaryoning quyi qismidagi to'qaylarning buzilishi bilan bu joylardan yo'lbars, buxoro bug'usi yo'qolib ketdi. Janubiy Orol bo'yidagi 60 dan ortiq qushlardan 10 ga yaqin turi yo'qolib borayotgani va 42 turidan ortig'i „noyob“ turga aylanayotgani haqiqatdir. Sho'rlanishning keskin ortishi tufayli Orol dengizi tobora o'lik dengizga aylanib bormoqda. Orol dengizi va Orol bo'yida suv havzalarda tarqalgan 28 tur baliqlardan 12 turi, jumladan Amudaryo kurakburun, Orol mo'ylovdori yo'qolib ketayotgan va noyob turlarga kiritilgan.[1]

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, mazkur holat nima uchun ro'y berdi? Degan savol paydo bo'ladi albatda, sabab esa suvdan nooqilona foydalanish oqibatida obihayot hajmi sezilarli darajada kamayib ketdi. Bu esa tuz konsentratsiya-sining keskin ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Dengizda hayot alomatlari deyarli qolmadi. Baliqlar, qushlar, hayvonlarning o'nlab turlari yo'qoldi. Odamlarning dengiz bilan bevosita bog'liq bo'lgan xo'jalik faoliyati to'xtadi. Bugun bu yerlarda qum bo'ronlari ko'tariladi. Sahro esa dengizni siqib chiqargan. Har yili Orolning qaqshagan tubidan tonnalab qum va tuz shamol bilan havoga ko'tarilib, ulkan hududlarga yoyilib ketyapti. Ba'zan dengiz qumlari Arktika, Skandinaviyada ham uchrayotir. Endi tuzli-qumli bo'ronlar ekologiya, hayot va inson salomatligiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini bir zum ko'z o'ngingizga keltiring. Masalan, o'tgan yilda ular ekinlar hosilini nobud qildi. Bu mahalliy aholi, ayniqsa, fermerlarning hayot sifatiga ham ta'sir o'tkazmay qolmadi. Orol dengizini asraylik, bu har birimizning vazifamiz hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Reclaiming the Aral Sea, Scientific American, mart, 2008
3. 31-oktabr 2014-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 5-sentabr 2011-yil
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi